

“TASDIQLAYMAN”  
 O‘zgidromet Bosh direktori  
 Sh. Khabibullayev



2022 - yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_

**O‘zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazining  
 Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha  
 CHORA-TADBIRLAR REJASI**

T/r	Tadbir nomi	Ijro mexanizmi	Ijro sanasi	Mas’ul ijrochilar
1.	Xotin-qizlar va erkaklar holatini aks ettiradigan axborotlarni yig‘ish, tahlil qilish va <b>hydromet.uz</b> veb-saytidagi yangi talqin <b>gender tengligi ustинida</b> joylashtirib borish.	Vakolatli organlar va tashkilotlardan hamda O‘zgidromet tarmoq boshqarmalaridan genderga oid tegishli ma’lumotlarini yig‘ib olish, tahlil qilish va “ <b>hydromet.uz</b> ” veb-saytidagi yangi talqin <b>gender tengligi ustинida</b> joylashtirib borish.	Yil davomida	“Meteoinfokom” DM Axborot-xizmati bo‘limi O‘zgidromet boshqarma boshliqlari.
2.	O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi va boshqa amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga asosan xotin-qizlarga o‘z vaqtida huquqiy imtiyozlar taqdim etib borish.	Koronavirus pandemiyasi sharoitida xodimlarning ayniqsa, xotin-qizlarning masofaviy ishlashi uchun shart-sharoit yaratish, o‘z vaqtida mehnat ta’tillari va yosh bolali onalarga qisqartirilgan ish kunlari qonunga muvofiq ta’minlanishini monitoring qilish, murojaat qilgan shaxslarga o‘z vaqtida qonunda belgilangan tartibda imtiyozlar taqdim etish uchun rahbariyatga takliflar kiritib borish.	2022- yil davomida	O‘zgidrometning boshqarma boshliqlari, mustaqil bo‘imlari, Kadrlar boshlig‘i Yuridik bo‘limi boshlig‘i.
3.	Ishga qabul qilish hamda kadrlar zaxirasini shakllantirishda gender tenglikka ahamiyat berish.	Ishga kirish maqsadida murojaat qilgan nomzodlar bilan o‘tkaziladigan suhbat jarayonlarida, ish beruvchi tomonidan vazifa va lavozimlarga tayinlashda hamda kadrlar zaxirasini shakllantirishda gender tenglikni ta’minlash choralarini ko‘rib borish.	2022- yil davomida	Kadrlar boshlig‘i

T/r	Tadbir nomi	Ijro mexanizmi	Ijro sanasi	Mas'ul ijrochilar
4.	Rahbar lavozimlariga xotin-qizlar nomzodlarini tavsiya qilinishini ta'minlash.	<p>1. Rahbarlik lavozimlariga iqtidorli, talabchan va mas'uliyatli xotin-qizlar nomzodlarini tavsiya qilib borish;</p> <p>2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasiga boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun <b>O'zgidromet</b> tizimidagi iqtidorli xotin-qizlarni tavsiya qilish uchun rahbariyatga takliflar kiritib borish.</p>	2022- yil davomida	Kadrlar boshlig'i O'zgidromet boshqarma boshliqlari.
5.	Xodimlarni Davlat mukofotlari va ko'krak nishonlariga tavsiya qilish hamda rag'batlantirish.	Davlat mukofotlari va ko'krak nishonlariga tavsiya qilish hamda rag'batlantirishda gender tenglikni ta'minlash bo'yicha <b>O'zgidromet</b> rahbariyatiga takliflar kiritib borish.	2022- yil davomida	Kasaba uyushmasi raisi Kadrlar boshlig'i
6.	Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha o'qishlarni tashkil etish.	Xotin-qizlar va erkaklar uchun tengligi, xotin-qizlarga nisbatan tazyiqlar bo'yicha davra suhbatlari, o'qishlar tashkil etish.	2022- yil davomida	Kadrlar boshlig'i
7.	Mehnatga haq to'lash borasida <b>O'zgidromet</b> tizimida ishlayotgan xotin-qizlar va erkaklar tengligini ta'minlash.	Bir xil lavozimlarda ishlayotgan xotin-qizlar va erkaklarga oylik ish haqi hamda unga tenglashtirilgan boshqa to'lovlar teng to'lanishini monitoring qilib borish.	2022- yil davomida	Moliya-iqtisod boshqarmasi, Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi bosh buxgalteri o'rinosi
8.	Gender tenglikni ta'minlash madaniyatini shakllantirish maqsadida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishi.	<b>O'zgidrometda</b> xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlashga yo'naltirilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishi va bu borada amalga oshirilgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida yoritib borish.	2022- yil davomida	Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjalariiga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi

T/r	Tadbir nomi	Ijro mexanizmi	Ijro sanasi	Mas'ul ijrochilar
9.	Mehnat jamoasida kasbiy yo'nalishda teng imkoniyatlar yaratilishi.	<p>1. Mehnat jamoasida kasbiy yo'nalishda teng imkoniyatlar yaratilishi, ayniqsa xotin-qizlarni doimiy ravishda bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazish yuzasidan rahbariyatga takliflar kiritib borish;</p> <p>2. Ilmiy ish qilayotgan xodimlarga qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish bo'yicha rahbariyatga takliflar kiritish.</p>	2022-yil davomida	Kasaba uyushmasi raisi Kadrlar boshlig'i Boshqarma boshliqlari.
10.	<b>O'zgidromet</b> tizimida yosh kadrlarni kasbiy malaka va ko'nikmalarini Ustoz-shogird an'analari asosida oshirish.	<b>O'zgidromet</b> tarmoq boshqarmalari va bo'limlarda uzoq yillar mobaynida ishlab kelayotgan malakali xodimlarni yosh kadrlarga ustoz sifatida biriktirib ularning kasbiy malaka va ko'nikmalarini oshirib borish ishlarini davom ettirish.	Doimiy	Markaziy apparat, Boshqarma, tizim tashkilotlari va hududiy boshqarma boshliqlari
11.	Xotin-qizlar va erkaklarning sogligini saklashni ta'minlaydigan, xavfsiz mexnat sharoitlari yaratish.	<b>O'zgidromet</b> xodimlari tomonidan mehnatga oid qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi bo'yicha nazorat o'rnatish hamda <b>O'zgidromet</b> tomonidan tegishli me'yoriy hujjatlarga va texnik standartlarga muvofiq xodimlar uchun xavfsiz va gigiena talablariga javob beradigan mehnat sharoitlarini yaratish bo'yicha tegishli tadbirlarni amalga oshirish.	Doimiy	O'zgidrometning boshqarma boshliqlari
12.	Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarning buzilishiga doir murojaatlarni ko'rib chiqish	<b>O'zgidromet</b> tizimida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarning buzilishiga doir murojaatlarni belgilangan tartibda ko'rib chiqish va bu haqda maslahat kengashi va <b>O'zgidromet</b> rahbariyatiga axborot kiritib borish.	Doimiy	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash va ijro intizomi nazorati bo'limi boshlig'i, Kadrlar boshlig'i